*103.* O'qituvchi darsda va darsdan tashqari vaqtda bolalar bilan **MASLAHATLASHIB** faoliyat yuritadi. Biror tadbir o'tkazishdan avval kim qaysi vazifani bajarishi haqida kelishib oladi. Bu sinf o'quvchilari doimo faollik bilan ajralib turadi. Bu uslubda o'qituvchi **JAMOA FIKRIGA TAYANADI**, har bir o'quvchining qiziqish va qobiliyatlari hisobga olinadi, har bir o'quvchi taqdirlanadi, **TASHABBUSGA KENG YO'L OCHILADI**.
Bunday uslub qanday nomlanadi?
*A) liberal*
*B) liberal-demokratik*
*C) avtoritar*
*D) demokratik*

*104.* O'qituvchi bir o'quvchining dars jarayonida berilgan vazifalarni tezlik bilan, pala-partish bajarib, so'ng partaning bir chekkasida berkitib rasm chizayotganini sezib qoldi. Darsdan so'ng bu bolani tasviriy san'at ustozining oldiga olib borib, fan to'garagi mash'ulotiga yozdirib qo'ydi. Bunda o'qituvchi pedagogik qobilyatining qaysi yo'nalishini namoyon qildi?
*A) shaxsning ichki va mantiqiy qobiliyati*
*B) eshitish va his qilish qobiliyati*
*C) muloqot qilish qobiliyati*
***D) voqealarni oldindan ko'ra bilish qobiliyati***
***105.*** O'qituvchi darsda mavzuga oid holatni barcha **tafsilotlari bilan tasvirlab berdi**. Bu vaziyatda o'qituvchi nutqning qaysi shaklidan foydalandi?
**A) *monologik*** B) *dialog va polilog* C) *dialog* D) *polilog*

106. Loyiha ishi. bir guruh o'quvchilar loyiha ishi ustida juda ko'p mehnat qildilar.
Uni bajarib bo'lgach, darsda sinfdoshlari oldida taqdimot o'tkazdilar. O'qituvchi loyiha ishida **ba'zi kamchiliklar bo'lsa-da**, vazifa yaxshi bajarilganligi va dolzarbligi haqida gapirib, guruh a'zolarini **MAQTAB QO'YDI.** U nima uchun bunday qildi?
*A) o'quvchilarning yutuqlarini baholash orqali, ularni o'qishni davom ettirishga qiziqtirish uchun*
*B) o'quvchilarning erishgan yutuqlari natijalarini tahlil qilish uchun*
*C) o'quvchilarning yutuqlarini baholash va bahoni asoslab berish uchun*
*D) o'quvchilar ta'lim jarayonida to'qnashgan qiyinchiliklarni qayd etish uchun*

107. Shaxsning individual-psixologik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan **LAYOQATI** va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi INDIVIDUAL PSIXIK sifatlar yig'indisi bu...

METODIK TOMCHI

JAVOB: Qobilyat

108. Maktabning ma’naviy-marifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari Tarbiya darsiga tahlil uchun kirdi. Yakunda o’qituvchining mashg’ulot davomida **milliy ruh, madaniyatning go’zal durdonalari,**shu soha bo’yicha buyuk **alloma va olimlarning qilgan ishlari va aytgan fikrlaridan o’rinli foydalanganligini ta’kidlab o’tdi.**
Bunda tahlilning qanday turidan foydalanilgan?

*A) psixologik tahlil*
***B) metodologik tahlil***
*C) pedagogik tahlil*
*D) didaktik tahlil*

109. Tavsiya etiladigan pedagogik yondashuv – bu...
JAVOB: Individuallashtirish

110. Fuqarolik **kompetensiyasi** – bu...
A) qiyin vaziyatlardan chiqish yo‘lini topish va ulardan qochish qobiliyati.
**B) insonning fuqarolik jamiyatining faol va mas’uliyatli a’zosi bo‘lish, uni shakllantirish va rivojlantirishda ishtirok etish qobiliyati.**
C) pedagogik mahoratdir
D) o‘ziga xos qoidalar va tuzilishga ega bo‘lgan ijtimoiy guruh

111. Quyidagi javoblarning qaysi birida ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar keltirilgan?
JAVOB: tarqatma material va ko’rgazmali qurollar

112. Pedagogik amaliyotida **yosh o'qituvchilarning** pedagogik texnikasıda uchraydigan **juz'iy kamchiliklarni** aniqlang
*1) o'quvchi yoki uning ota-onasi bilan sidqidildan so'zlasha olmaslik*
*2) g'azabni to'xtata olmaslik yoki uni o'z o'mida ishlata olmaslik*
***3) o'zini erkin tutish va xushamomala bo'lish (faqatgina shu kamchilikka kirmaydi)***
*4) nutqni ravon bayon eta olmaslik*
*5) ortiqcha qattiqqo'llik*
*6) monoton bir ohangda so'zlash, nutqning zerikarliligi, jonli emasligi*
*7) juda tez gapirish (ayniqsa darslarda)*
*8) ortiqcha harakat yoki bir joyda qotib qolish, qo'llarini qayerga qo'yishni bilmaslik*

A) 1,2,3,4,5,7,8
B) 1,2,3,5,6,7,8
C) 2,3,4,5,6,7,8
D) 1,2,4,5,6,7,8

113-114-savol Mahorat nima? Pedagogik mahorat nima?

**Маҳорат** (а. “маҳорат” – моҳирлик, усталик, эпчиллик) – бир иш ёки фаолиятни юксак даражада, ҳеч бир қийинчиликсиз, ўта моҳирлик билан бажариш.

**Педагогик маҳорат** – педагогнинг педагогик жараённи ташкилий, методик, руҳий ва субъектив жиҳатдан ўта моҳирлик, усталик билан ташкил этиш ҳамда бошқариш қобилияти ва малакасига эгалиги

METODIK TOMCHI

115. Darsning turlari jami 6ta.E'tibor bering o'rganib chiqing

Darsning quyidagi turlari mavjud:

- Aralash (kombinatsion dars).
- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
- Laboratoriya darslari.
- Amaliy darslar.

**SAVOL: Darsning qanday turlari mavjud, belgilang.**
1. Aralash (kombinatsion dars).
2. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
3. O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
4. Ilmiy ishlarni himoya qilish
5. O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
6. Laboratoriya darslari.
7. Tajriba sinov darslari
8. Amaliy darslar.

A) 1,2,3,4,5,6
**B) 1,2,3,5,6,8**
C) 1,2,3,4,7,8
D) 1,2,5,6,7,8

116. Yosh o'qituvchi dars davomida turli holatlarga duch keladi. Masalan, dars jarayonida yangi mavzuni tushuntirish, o'quvchilarga ba'zi hollarda **tanbeh berish** va hokazolar. Bunday holatlarda o'qituvchi pedagogik ta'sir o'tkazish bo'yicha e'tibor berishi kerak bo'lgan jihatlarning **to'gri ketma-ketligini** aniqlang.
1. Pedagogik ta'sir ko'rsatish.
2. Optimal metodlarni tanlash.
3. Murakkab vaziyatdan chiqishning variantlarini saralash.
4. Vaziyatni tahlil qilish

***A) 4,3,2,1***
*B) 3,4,2,1*
*C) 3,4,1,2*
*D) 4,2,3,1*

117. Sinf rahbari bir o'quvchisining **ba'zi fanlardan orqada qolayotganini** aniqladi. Bolaga darslami o'zlashtirishga yordam tariqasida uni darsdan keyingi faoliyatga jalb etdi. Nima deb o'ylaysiz, sinf rahbari o'quvchini ta'limni tashkil etishning **qaysi yordamchi shakli bilan shug'ullanishga yo'naltirgan?** To'g'ri bo'lishi mumkin bo'lgan variantlarni belgilang.
1. Fan to'garaklari,
2. Fakultativ mashg'ulotlar
3. O'qituvchi maslahati,
4. O'quv ekskursiyalari
5. O'quv konferensiyalari

**A) 1,2,3,4,5**
B) faqat 1,3,4
C) faqat 1,2,3,5
D) faqat 1,3,4,5

METODIK TOMCHI

118. Boshlangi'ich sinfning bir o'quvchisi darslarda **o'zini yomon tutishi va o'qituvchisiga sinfdoshlari oldida gap qaytarishi kuzatildi.** Sinf rahbarining alohida suhbatlari natija bermadi. O'qituvchi bolani tarbiyalashda uning or-nomusi, izzat-nafsi, his-tuyg'ularini ehtiyotkorlik bilan o'stirish kerakligini inobatga olgan holda uni koyidi. **Bola qilgan ishidan HIJOLAT bo'ldi.** Shunda sinf rahbari motivatsion metodlarning qaysi biridan unumli foydalangan?

**Javob: Uyaltirish**

A) Rag'batlantirish
B) Talab
C) Tanbeh
**D) Uyaltirish**

**119.** Boshlang'ich sinf o'quvchisi so'nggi paytlarda **ish jarayonida o'zining emotsional holati barqaror emasligini** kuzatdi. Shu masala yuzasidan maktab **psixologiga murojaat** qildi. Psixolog o'zini-o'zi tarbiyalashni maslahat berdi.
**O'zini-o'zi tarbiyalash tushunchasi** to'g'ri izohlangan qatorni toping.
A) Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg'ularni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizirtiraverish yaramaydi.
B) Tarbiya metodlarini tanlab olish
C) Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.
**D) O'qituvchi kasbiga mos bo'lgan madaniyatning shakllanishi, ruhiy va axloqiy sifatlarni tinmay rivojlantirish.**

120. **O'qituvchi o'quvchilarga zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida to'g'ri faoliyat (kerakli** ma'lumotlar tahlili) yuritishni o'rgatdi. Shunda o'qituvchi "Ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish kasbiy faoliyat turining qaysi mehnat vazifalarini bajardi?

- **Javob: Xavfsiz ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash;**

121. Moslikni eslab qoling. Jadvalli savol.

| | |
|---|---|
| 1. Dars vaqidan oqilona foydalanish | a) Dars bosqichlarini, sinfday o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi turli ekanligini hisobga olgan holda rejalashtirish. |
| 2. O'qitishning faol usuflaridan foydalanish | b) Dars jarayonida ta'limiy maqsadlarga erishish uchun turli pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish. |
| 3. Sinfda samarali muloqotni ta'minlash | c) Darsning turli bosqichlarida savol-javob, fikr almashish, qayta muloqot usullaridan foydalanish. |
| | d) Darsning turli bosqichlarida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan suhbat o'tkazish. |

Javob: 1-a, 2-b, 3-c

METODIK TOMCHI

122. Moslikni eslab qoling. Jadvalli savol.

Kasbiy faoliyat turlari va mehnat vazifalarini moslashtiring

| | |
|---|---|
| 1. O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish | a) O'zaro darslarda qatnashish, ularni tahlil qilish, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish |
| 2. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish | b) Ziddiyatlarni hal qilish, sinfda va undan tashqarida muloqot qilishi uchun yaratishda muloqot o'tkazish ijobiy muhit |
| 3. Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik | c) Tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislarni maktab hayotiga jalb qilish |
| 4. Ta'lim samaradorligini ta'minlash | d) O'quvchilarning jamoaviy va hamkorlikdagi loyihaviy ishlarini ni tashkil etish |
| | e) Darsdan tashqari turli madaniy tadbirlarda ishtirok etish |

Javob: 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

123. Moslikni eslab qoling. Jadvalli savol.

| | |
|---|---|
| 1. Kreativlikni rivojlantiruvchi omillar | a) O’quvchilar tomonidan ko’p savollar berilishini rag’batlantirish va bu odatni qo’llab quvvatlash |
| | b) Shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi |
| 2. Kreativlikning rivojlanishiga to’sqinlik qiluvchi sabablar | c) Boshqalarga tobe bo’lish |
| | d) Bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish |

Javob: 1-a, d; 2-b, c

Quyidagi manba bilan tanishib chiqing foydasi tegadi.

METODIK

Болаларда креативликни ривожлантиришда қуйидагиларга эътибор қаратиш зарур:

1) улар томонидан кўп саволлар берилишини рағбатлантириш ва бу одатни қўллаб-қувватлаш;
2) болаларнинг мустақиллигини рағбатлантириш ва уларда жавобгарликни кучайтириш;
3) болалар томонидан мустақил фаолиятни ташкил этилиши учун имконият яратиш;

Қуйидаги омиллар шахсда креативликни ривожлантиришга тўсқинлик қилади:

1) ўзини таваккалдан олиб қочиш;
2) фикрлаш ва хатти-ҳаракатларда қўполликка йўл қўйиш;
3) шахс фантазияси ва тасаввурининг юқори баҳоланмаслиги;
4) бошқаларга тобе бўлиш;
5) ҳар қандай ҳолатда ҳам фақат ютуқни ўйлаш

Психологияда П.Торренс томонидан шахс креативлигини аниқловчи тест ишлаб чиқилган. П.Торренснинг фикрича, шахс креативлиги ўзида қуйидаги белгиларни намоѐн қилади:

1) саволлар, камчиликларга ѐки бир-бирига зид маълумотларга эътиборсиз бўлмаслик;
2) муаммоларни аниқлаш учун ҳаракат қилиш, илгари сурилган тахминлар асосида уларнинг ечимини топишга интилиш

124. Maktabning ma'naviy-marifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Tarbiya darsiga tahlil uchun kirdi. Yakunda o'qituvchining mashg'ulot davomida **milliy ruh, madaniyatning go'zal durdonalari,shu soha bo'yicha buyuk alloma va olimlarning qilgan ishlari va aytgan fikrlaridan** o'rinli foydalanganligini ta'kidlab o'tdi.
Savol: Bunda tahlilning qanday turidan foydalanilgan?
A. Didaktik B. Psixologik C. Metodologik D. Uslubiy

125. Yosh sinf rahbar

Yosh sinf rahbari oldiga bir o'quvchining onasi kelib, uni o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashni bilmaslikda aybladi. Farzandining **dars vaqtida** sinf rahbaridan juda ko'p **dakki eshitayotganidan** e'tiroz bildirdi. **Bu vaziyatda** o'qituvchi ta'lim – tarbiya jarayonida nimani hisobga **olmagan?**

A) ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil
B) o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlarining shakllanganligi
C) ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi o'z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olmasligi va turli nojo'ya ta'sirlarg
D) darsdan tashqari jarayonda o'z xatti-harakatlarini to'g'ri boshqarishi

**JAVOB: C**

126.


Berilgan topshiriqni bajargan o‘quvchi o‘z bahosidan norozi bo‘ldi va “3” bahoni “4” bahoga ko‘tarishni talab qildi. Bunday holat yuzaga kelishining sababi nimada?
1. Topshiriq berilayotganda o‘quvchilar baholash mezoni bilan tanishtirilmagan
2. Topshiriqni baholashda sub’yektiv yondashilgan
3. Topshiriq sinfdagi o‘quvchilarga nisbatan baholangan
4. Topshiriq baholash mezonlarining barcha talablari asosida amalga oshirilgan va barchaga tushuntirilgan

A) 1,3,4
B) 2,3,4
C) 1,2,3
D) 1,2,4

JAVOB: C 1,2,3

127. O’qituvchi dars davomida o’quvchilarga **o’tilgan mavzular** yuzasidan savollar berdi. So’ng o’quvchilar olgan bilimlarni qo’llash maqsadida kichik guruhlarda amaliy topshiriq bajardilar. Dars yakunida o’rganilgan mavzu yuzasidan **o’z xulosalarini** taqdimot qildilar.
Shunda o’qituvchi qaysi dars turidan foydalandi?
A) Yangi bilimlarni bayon qilish darsi
**B) O’rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsi**
C) Aralash dars
D) O‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.

128. Monitoring so’zining ma’nosi nima?
JAVOB: uzluksiz kuzatish


Pedagogik mahoratni tashkil etuvchi komponentlarni toping:
1. O‘qituvchilik kasbiga sadoqat
2. Faqat o‘z mutaxassisligi doirasida diplomga ega bo‘lish
3. O‘z fanini o‘qitish metodikasini mukammal bilish
4. Pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olish
5. Pedagogik texnikani o‘z o‘rnida qo‘llay olish
6. Turli vaziyatlarda o‘qituvchiga xos bo‘lgan ijodiy kayfiyatni boshqara olmaslik

A) 1, 2, 3, 6
B) 3, 4, 5, 6
C) 1, 2, 3, 4
D) 1, 3, 4, 5

JAVOB: D

METODIK TOMCHI




130. **Bilim nima?** Ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi. Bilim - Shaxsning ongida tushunchalar sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

**Ko'nikma nima?** Shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobilyati. Egallangan bilimlarning aniq xatt-harakatidagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amalyotga qo'llash usullarini egallash.

**Malaka nima?** Muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli. Avtomatlashgan biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi.

**Kompetensiya nima?** Egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati.

**Mahorat** — muayyan ish, hatti-harakat yoki kasbi faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etislishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

**Epchillik nima?** Bir g'oyadan boshqasiga, shu jumladan o'zinikiga qarama-qarshi bo'lgan g'oyaga o'ta olish qobilyati.

**FIKRLASH nima?** Fikrlash — shaxs bilish faoliyati jarayoni bo'lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi.

131. O'qituvchi nima uchun favqulodda yoki xavfli vaziyatlarda malakali harakat qilish, kerak bo'lganda birinchi yordam ko'rsatish to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berdi?
**JAVOB: Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish uchun**

METODIK TOMCHI

132.

Siz 9-sinf rahbari bo'ldingiz. Ishning birinchi haftasida bolalar o'rtasida munosabatlar murakkab, ziddiyatli, do'stona emasligi ma'lum bo'ldi. Ularni **birlashtirish uchun** darsdan keyin yig'ilib, **suhbatlashishni taklif etdingiz.** Ular **sinf rahbarining gapiga ishonchsizlik bilan qaradilar** va suhbatga faqat bir necha o'quvchigina keldi. Bunday holatda siz muloqotning qanday usulidan foydalanganingiz ma'qul?

- **A)** Tazyiq o'tkazish usuli
- **B)** Psixologik ta'sir etish usuli
- **C)** Ishonchni qozonish usuli
- **D)** Ta'sir etish va ma'qullash usuli

**JAVOB: C**

133. Turli xil muhitda har xil emotsional holatlardagi odamlar bilan aloqa qila olish ko'nikmasi o'qituvchi kasbiy faoliyat turining qaysi vazifasini bajarish uchun juda muhim?
**JAVOB: Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish**

134. Pedagogik **ta'sir ko'rsatish usuli** sifatida **ishontirish** nimalarni talab etadi?

1. **Dalillarni keltirishni**
2. **Isbotlashni**
3. **Mantiqni**

**135. Moslikni eslab qoling:**

| | |
|---|---|
| 1. **PIRLS** | a) boshlang'ich **4-sinf** o'quvchilarining **matnni o'qish va tushunish** darajasini baholash; |
| 2. **TIMSS** | b) **4- va 8-sinf** o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash; o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholaydi. TIMSS baholashlari **o'quv dasturlariga** asoslangan |
| 3. **TALIS** | c) rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida **o'qitish va ta'lim olish muhitini** hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish; |
| 4. **PISA** | d) **15 yoshli** o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash. o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarini real **muammolarni hal qila olishlarini** baholashga qaratiladi. |
| 5. **EGRA** | e) **boshlang'ich** sinf o'quvchilarining **o'qish savodxonligi** |
| 6. **EGMA** | f) **matematik** savodxonligini baholash |
| **@METODIK_TOMCHI kanali** | |

136. Sinfga yangi o'quvchi kelgan u boshqa o'quvchilar bilan aralashib ketishi uchun o'quvchi nima qilish kerak?

METODIK TOMCHI

JAVOB: Ishonchi qozonish, ta'sir qilish, ma'qullash

137. **Debat nima?** muayyan mavzu yoki muammoli vaziyatga turli nuqtai nazarlar bilan yondoshish va oʻz fikrini omma oldida himoya qilishga oʻrgatadi.

**138.** Yosh mutaxasis hamkasbining tajribasini o'rganish va ta'lim jarayonini tahlil qilish maqsadida uning darsini kuzatdi. Dars davomida **o`quvchilarni qiziqishlarini kayfiyati yaxshi darsga tayyor eklanliklarini** ta'kidlab o'tdi. Yosh mutaxasis dars tahlilini qanday turidan foydalandi

A) Pedagogik tahlil
B) Metodik tahlil
C) Didaktik tahlil
D) Psixologik tahlil

**QO'SHIMCHA MA'LUMOT: Psixologik tahlilga xos xususiyatlarni eslab qoling.**
Bu tahlilda, avvalo, talabalarning kayfiyati, ularning sogʻligi, jamoadagi sogʻlom muhit, talabalarning xushèrligi fanga boʻlgan qiziqishlari, dars beraètgan oʻqituvchisiga munosabati, Talabalarning hozirjavobligi, sezgir va topqirligi, haroki, yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashlari, obrazli va mantiqiy tafakkuri, talabalar fantaziyasi, oldida turgan mas'uliyatlariga talabalarning irodali èki irodasizligi, ulardagi
bilim, koʻnikma va malakalar koʻlami kabi tomonlar kiradi. Oʻqituvchining favqulodda vujudga kelgan vaziyatdan oʻz obroʻsini saqlagan holda chiqa olishi, oʻzini boshqara olishi ham inobatga olinadi.

**139. Ta'lim tamoyillari haqida savol tushgan. Quyidagi ta'lim tamoyillarini o'rganib oling:**

1. Insonparvarlik.
2. Tabiat bilan uygʻunlik.
3. Koʻrgazmalilik.
4. Onglilik, faollik, ijodiylik.
5. Madaniyat bilan uygʻunlik.
6. Tushunarlilik.
7. Ilmiylik.
8. Ta'limning amaliyot bilan uygʻunligi.
9. Izchillik, tizimlilik, ketma-ketlik.
10. Tarbiyalovchi ta'lim.
11. Oʻquvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.
12. Oqilona talabchanlik bilan ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish.

**140. Refleksiya -** ta'lim-tarbiya jarayonida o'z-o'zini boshqarish malakalari, **O'qituvchining o'z-oʻziga ta'sir qilishi.** ***Refleksiya - ichki tasavvurdan tashqi tasawurga va aksincha biridan boshqasiga o'tish.***

TOMCHI

| I.N.SEMYONOV TOMONIDAN ISHLAB CHIQILGAN REFLEKSIYA TURLARI |
|---|
| **1. *Intellektual refleksiya:* Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.** |
| **2. *Shaxsiy refleksiya:* O'qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi.** |
| **3. *Kommunikativ refleksiya:* Muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi.** |
| **4. *Kooperativ refleksiya:* Jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.** |

141. Androgogika nima?
JAVOB: Kattalar ta'limi.

142. **STEAM ta'lim (STEAM education).** STEAM ta'lim texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida to'rtta – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir. STEAM ta'limi amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash tushuniladi.

**143. Moslikni eslab qoling:** **Pedagogikadan tushgan savol**

| | |
|---|---|
| **1) VIZUAL** | **a) ko'rish** - haqiqiy(original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar; |
| **2) AUDIAL** | **b) eshitish** - radio, magnitofon, musiqa asboblari; |
| **3) AUDIOIZUAL** | **c) ko'rish-eshitish** - ovozli filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar. |
| @METODIK_TOMCHI kanali | |

144. SAVOL: Korrektsion pedagogika sohalarini mazmuniga qarab moslab chiqing.
JAVOB: Quyidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqing.

METODIK TOMCHI

**Korrektsion pedagogika (defektologiya)**

- Surdopedagogika va surdopsixologiya - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashni o'rganadi
- Tiflopedagogika va tiflopsixologiya - ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni o'rganadi
- Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya - aqli zaif bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni o'rganadi
- Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi - nutqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni o'rganadi
- Motorli-harakatlanını apparatining murakkab nuqsonlar (ko'r, soqov va karlik)ni o'rganuvchi maxsus pedagogika va psixologiya sohalari

145. O'qituvchi sinf rahbar etib tayinlandi. Darsda shovqin bo'lib, dars samarali bo'lmadi. U nimaga bunday bo'lganligini rahbarlardan so'raganda. Bu sinfda eshitishida nuqsoni bor bolalar borligini aytishdi. O'qituvchi qanday qo'shimcha to'garakka yozilgan?
JAVOB: surdopedagogika

146. O'qituvchining o'quvchilar, ota - onalar , vasiylar va hamkasblar bilan bo'ladigan pedagogik munosabatlari jarayonida ko'zlangan maqsadga erishish uchun olib boriladigan kurashning muayyan sharoitlari ga mos yo'l, shakl metod va vositalar bu ?
**Javob: Pedagogik takt**

147. Yosh mutaxassis maktabda ish faoliyatini boshladi. Lekin yuqori sinf o'qvchilarini boshqara olmadi. Ma'naviy ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari yosh mutaxassisning darsini kuzatdi va **kommunikativ madaniyat** pedagog faoliyatida juda muhim o'rin egallashini uqtirdi. Pedagogning kommunikativ madaniyati qanday bo'lishi kerak.
To'g'ri javob berilgan qatorni belgilang.

**JAVOB: Pedagogning o'quvchilar va atrofdagilar bilan qisqa muddatda muloqot o'rnatishga bo'lgan doimiy intilishi.**

**QO'SHIMCHA MA'LUMOT VA SAVOLLAR:**
**Kommunikativ refleksiya:** Muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi.
**Kommunikativ tushunchasining mohiyatini belgilang?** O'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy ijobiy aloqa o'matish,
**Kammunikativlik:** O'quvchilar o'z fikrlarini aniq ravshan ifodalashga, suhbatdoshini tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadi.

148. **Diskussiya nima?**
**JAVOB:**–muayyan mavzu, vaziyat yoki holatni muhokama qilish. Diskussiyaning bosh maqsadi bilishga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish.

149. Ta'lim to'g'risidagi qonunning nechinchi moddasida o'qituvchining malaka toifasini olish haqida aytilgan?
**JAVOB: 13-modda**

**150.** Ta'lim to'g'risidagi qonuning nechanchi moddasida o'qituvchi o'z kasbiy darajasini tizimli ravishda oshirishga majburligi takidlangan?
**JAVOB: 46-modda**

**151. Hamkorlik ta'limi...**
JAVOB: oʻquv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni **birgalikda oʻzlashtirishlari,** oʻzaro rivojlanishlari, "pedagog-o'quvchi" **munosabatining hamkorlikda** tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim boʻlib, uning asosiy gʻoyasi oʻquv topshiriqlarini jamoada, kichik guruhlarda yoki juftlikda birgalikda, oʻzaro hamkorlikda bajarish.

152. Dars davomida **o'quvchilar o'rtasida nizoli holat** yuz berdi. O'qituvchi vaziyatni hal qilish maqsadida ularni darsdan so'ng olib qoldi va ularning murosaga kelib olishlariga imkon yaratib berdi. Bunday holatda **o'qituvchi tarbiyaviy faoliyat turining qaysi** yo'nalishini amalga oshirgan hisoblanadi?

**1. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish**
2. Ta'lim samaradorligini ta'minlash
**3. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish**
4. Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik
**JAVOB: 1,3**

153. Didaktik vositalarga nimalar kiradi?
JAVOB: oʻquv va koʻrgazmali qoʻllanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar

154. Uy vazifasini soʻrash, yangi materiallarni bayon qilish, yangi materiallarni mustaxkamlash, uy vazifalarini tekshirish qaysi dars turiga mansub?
JAVOB: aralash dars

155. Ta'lim mazmuni belgilab beruvchi asosiy me'yoriy hujjat?
JAVOB: Davlat ta'lim standarti

**156. Ta'limning texnik vositalari qanday funksiyalarni bajaradi?**
1) Ta'limning sifati va samaradorligini oshirish
2) O'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi
3) O'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi
4) O'quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan qiziqish hosil qilish
5) Dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirish
6) Oʻquv ishiga nisbatan oʻquvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta'minlaydi;
7) Bilimlarni nazorat, oʻzini-oʻzi nazorat qilishni ta'minlaydi.
JAVOB: barchasi

157. Didaktika nima?
JAVOB: Quyidagi ta'rif va ma'lumotlar didaktikaga oid.
1) «yunoncha» soʻzdan olingan boʻlib,«didacticos» - oʻrgatish, oʻqitish ma'nosini bildiradi
2) «ta'lim nazariyasi» ma'nosini anglatadi.
*3)* ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi
A) 1, 2 B) 2,3 C) 1,2,3 D) 1,3

**Qo'shimcha savol: Didaktik vositalarni belgilang.**
1) oʻquv va koʻrgazmali qoʻllanmalar
2) namoyishli qurilmalar
3) texnik vositalar tushuniladi.

METODIK TOMCHI

158. Metod so’zining ma’nosi.
JAVOB: yunoncha yo’l, uslubiyat degan ma’noni bildiradi.

159. Pedagogik muloqotning demokratik uslubi qanday?
JAVOB: O’zaro hamkorlikka asoslangan uslub

Pedagogik muloqot uslublari.
Moslikni mozmuni bilan eslab qoling.

| | |
|---|---|
| 1) avtoritar uslub | a) pedagogik muloqotda o‘qituvchining mutloq ustunligini ifodalovchi uslub |
| 2) demokratik uslub | b) pedagogik muloqotda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ifodalovchi uslub |
| 3) liberal uslub | c) pedagogik muloqotda o‘qituvchining e’tiborsizligini ifodalovchi uslub |
| | d) O’qituvchining bir tomonlama o’quvchilarga qaratilgan nutqi |
| @METODIK_TOMCHI | |

JAVOB: 1-a, 2-b, 3-c
160. O'qitishda evristik metodga mos javobni belgilang.
JAVOB: Evristik usul bu fanni o'qituvchidan mustaqil ravishda anglash uchun kashfiyot usuli. O'qituvchi talabalar uchun muammo tug'diradi, keyin ular javobni aniqlayotganda chetda turadi. Har bir talaba o'zi uchun hamma narsani kashf qilishi kerak va unga hech narsa aytilmaydi.

161. **BIR TOMONLAMA axborot uzatiladi**. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o‘zaro axborot almashuvini qamrab olgan bo’lib, O‘qituvchi va o‘quvchi bir -birlari bilan **muloqotga kirishishi jarayonida** muloqotning muhim vositalari bo’lmish **TIL VA NUTQ FAOLIYATI bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.**
Ushbu holat pedagog va o’quvchi o’rtasidagi qaysi muloqot shakliga mos.
**A) Kommunikativ muloqot**
B) Interaktiv muloqot.
C) Perseptiv muloqot.
D) Samarali muloqot

161.2 Bu muloqotning jihati **IKKI TOMONLAMA** bir-biriga ta’sir etishdir. Muloqotga kirishuvchi O‘qituvchi o’zaro ta’sir etishda, o‘quvchilaning tarbiyaviy faoliyatiga **nafaqat SO'Z orqali, balki FIKR almashinuv, XATTI - HARAKAT VA XULQ-ATVORI bilan o'zaro ta’sir o‘tkazishi** tushuniladi.
A) Kommunikativ muloqot
B) Interaktiv muloqot.
C) Perseptiv muloqot.
D) Samarali muloqot

161.3 O‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi o‘zaro bir-birlarini **idrok qilishi, anglashi** tushuniladi. Bunda muloqotga kirishuvchilar o‘zaro bir-birlarini **idrok qilish asosida** ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, **aqlli, farosatli, tajribali** yuksak tayyorgarlikka ega barkamol inson sifatida idrok qilinadi.
A) Kommunikativ muloqot
B) Interaktiv muloqot
**C) Perseptiv muloqot**
D) Samarali muloqot

Qo’shimcha ma’lumot: pedagogik muloqot quyidagi prinsiplarda namoyon boiadi:
**Kommunikativ muloqot.**

METODIK TOMCHI

**Interaktiv muloqot.**
**Perseptiv muloqot.**
1. ***Kommunikativ muloqotda*** bir tomonlama axborot uzatiladi. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o‘zaro axborot almashuvini qamrab olgan boiib, kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. O‘qituvchi va o‘quvchi bir - birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muloqotning muhim vositalari bo’lmish til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.
2. ***Interaktiv muloqotda*** muhim jihati ikki tomonlama bir-biriga ta’sir etishdir. Muloqotga kirishuvchi 0 ‘qituvchi o’zaro ta’sir etishda, o‘quvchilaming tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat so'z orqali, balki fikr almashinuv, xatti - harakat va xulq-atvori bilan o'zaro ta’sir o‘tkazishi tushuniladi.
3. ***Perseptiv muloqotda*** O‘qituvchi va O‘quvchilar jamoasi o‘zaro birbirlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi. Bunda muloqotga kirishuvchilar o‘zaro bir-birlarini idrok qilish asosida ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, aqlli, farosatli, tajribali. yuksak tayyorgarlikka ega barkamol inson sifatida idrok qilinadi.

162. Ta'limning aniq va o'lchandigan natijalarini hamda ushbu natijalarga erishishda aniq muddatlar (yil,chorak,dars) uchun vazifalarni aniqlash va ularni rejalarda shakllantirish o’qituvchilar kasbiy kompetensiyasining qaysi mehnat vazifasiga mansub zarur ko'nikma?
**JAVOB: O’quv jarayonini rejalashtirish**

METODIK TOMCHI

QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR, Ushbu ma'lumotlar bilan tanishib chiqing:

**Didaktik (yoki ta'limiy) tahlil.** Tahlilning bu turida mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo'nalishi, ko'rgazmaliligi va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligi, ularning jonli va ravon tilda yoritib berilishi nazarda tutiladi.

**Uslubiy tahlil.** Bunda o'qituvchi faoliyatining ikki tomoni: birinchidan, o'rganilayotgan mavzuga dasturda mo'ljallangan soatda, uni qanday usullar yordamida, o'quvchilarning yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazib bera olishi, o'quvchilarni o'ylashga, izlanishga majbur etishi va unga sharoit yaratishi; ikkinchidan, o'qituvchi sifatidagi tajribalari qay darajada ekanligini namoyish eta olishi nazarda tutiladi.

TARIXDAN TOMCHI

**Psixologik tahlil.** Bu tahlilda, avvalo, o'quvchilarning kayfiyati, ularning sog'ligi, jamoadagi sog'lom muhit, o'quvchilarning hushyorligi, fanga bo'lgan qiziqishlari, o'qituvchiga munosabati, o'quvchilarning hozirjavobligi, sezgir va topqirligi, idroki, yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashlari, ifodali va mantiqiy tafakkurlari, o'quvchilar farazi, oldida turgan mas'uliyatlariga nisbatan o'quvchilarning irodali yoki irodasizligi, ulardagi qobiliyat, bilim, ko'nikma va malakalar ko'lami kabi tomonlar kiradi. O'qituvchining favqulodda vujudga kelgan vaziyatdan o'z obro'sini saqlagan holda chiqa olishi, o'zini boshqara olishi ham inobatga olinadi.

**Pedagogik tahlil.** Tahlilning bu turi ancha murakkab va mas'uliyatli bo'lib, o'qituvchining tashqi qiyofasi, o'quvchilar bilan til topa olish mahorati, madaniyati, odobi bilan birgalikda dars jarayonida umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini o'quvchilarga bera olishi va uning nutq madaniyati ham nazarda tutiladi.

Mashg'ulot mobaynida hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan milliy tarbiya (ekologik, iqtisodiy, axloqiy, jinsiy, mehnat, nafosat va milliy istiqlol g'oyasini singdirish) elementlari qanday amalga oshirildi?

Bu tarbiya turlaridan qay biriga aynan shu darsda ko'proq e'tibor berildi?

Dars tarbiyaviy ta'sirining samarasi qanday bo'ldi?

**O'qituvchining hamkorlikdagi vazifasi tahlili:** o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish, aniq fikr va materiallarni o'rganib, mulohaza yuritish, fikr bildirishni ta'minlashi, o quvchilarni izlanishga, ijodkorlikka o'rgatishi, o'quvchining o'zi mustaqil fikrga ega bo'la olishi.

**Yakuniy xulosa.** O'qituvchining xulosasi, dars rejasining bajarilishi, o'qituvchining darsda o'z oldiga qo'ygan ta'lim-tarbiya maqsadiga to'liq erishishi yoki erisha olmaganligi, o'quvchilar bilimining sifati, Davlat ta'lim standartiga mosligi, mavzuni avvalgi mavzu bilan bog'liqligi, o'qituvchining metodik, ilmiy yordamga muhtojligi, o'qituvchining mutaxassisligi bo'yicha fikrlar va takliflar, yo'l-yo'riqlar bayon etiladi.

Kommunikativ qobiliyat: o'qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, mahalla ahli bilan bo'ladigan o'zaro muloqotida, ularning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo'lish, muloqotga kirishishida pok ko'ngillilik. O'qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo'lishi, muomala madaniyatini muntazam o'zida shakllantirib borishi lozim.

Perseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvchanlik muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'quvchining psixologiyasini, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

Empatik qobiliyat: bolalarga bo'lgan muhabbatdan kelib chiqadigan o'quvchilarning his-tuyg'usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

Ta'lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati: o'qituvchi o'z bilimini o'quvchi ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga yetkaza olishi, ta'lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.

Didaktik qobiliyat: o'quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta'lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o'zlashtirgan holda samarali dars berish qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U sinf o'quvchilarining o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o'qituvchining o'quv–tarbiyaviy faoliyatni puxta rejalashtirishi asosida yuzaga keladigan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan ko'ra olishi.

Bilish qobiliyati: o'qituvchining o'z fanini va boshqa fanlarni chuqur bilishida, o'zlashtirishi va amaliyotda namoyon etishi.

Anglash (tushunish) qobiliyati: o'qituvchining ziyrakligi va uddaburonligi, voqea va hodisalarni chuqur idrok etib, ularga adolatli munosabatda bo'lishi.

**O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra** ta'lim vositalari yangi materialni o'rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazoart qilish vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari va axborot vositalariga bo'linadi.

**O'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra** ta'lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o'quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O'quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta'lim-kommunikatsiya (muloqot) o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv faoliyati sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon. Kommunikatsiya - bu kodlash (o'qituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va o'quvchilarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish).

Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko'ra ham tasnif qilinadi. Bunday bog'liqlikka ko'ra didaktik vositalar vizual (ko'rish)- haqiqiy(original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar; audial(eshitish) - radio, magnitofon, musiqa asboblari; audioizual(ko'rish-eshitish)- ovozli filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar.

**Ta'limning texnik vositalari**. TTV - bu o'zida o'quv- axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga quyidagilar kiradi: o'quv kinofilmlari; diafilmlar; kompyuterlar; magnitofon tasmalari; radioeshittirish; teleko'rsatuvlar.

*Ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash(kombinatsion); trenajyor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar.*

Ta' limning texnik vositalari quyidagi **funktsiyalarni** bajaradi:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi;
- o'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi;
- o'quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarning axloqiy qiyofasini

ko'nikma va malakalar majmuasini egallagan, jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va huquqlari ta'minlangan mehnat faoliyati (mashg'uloti)ning turidir;

-kasbiy kompetensiya — bilim, ko'nikma va amaliy tajriba asosida kasbiy faoliyatga tegishli vazifalarni bajarishda faoliyat yuritish qobiliyati;

-kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari;

-kvalifikatsiya — kasbiy mahorat darajasi yoki pog'onasi kasbiy talablarning muayyan pog'onasiga muvofiqligi darajasi;

-kollej — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasigacha mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan vazirliklar va idoralar tizimida faoliyat ko'rsatadigan ta'lim muassasalari;

-kompetensiya — bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui;

-ko'nikma — muayyan vazifani bajarish uchun egallangan qobiliyat;

-mutaxassislik — biror kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va amaliy tajribasi bilan erishilgan zarur bilim, ko'nikma va malakalar majmui;

-professional standart — xodimga ma'lum bir kasbiy faoliyat turini, shu jumladan, ma'lum bir mehnat funksiyasini bajarish uchun zarur bo'lgan malaka talablari;

-professional ta'lim — ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi;

-tabaqalashtirilgan ta'lim dasturi — Xalqaro tasniflagichning tegishli darajalariga muvofiq boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'limda kadrlar tayyorlash uchun kasb yoki mutaxassisliklarning murakkablik darajalari, o'qitish muddatlari bir-biridan farq qiladigan ta'lim dasturi;

-ta'lim dasturi — professional ta'lim muassasasi bitiruvchisiga muayyan egallagan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyatni malakali bajarish imkonini berishga qaratilgan professional ta'lim tayyorgarligining asosiy mazmunini aniqlovchi davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi, o'quv fanlari (modullar) dasturlari, malaka amaliyot dasturlaridan iborat hujjatlar to'plami;

-davlat ta'lim standartlari — davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

